



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## ARAB, O'RTA OSIYO HAMDA YEVROPA TILSHUNOSLIKLARINI TAHLIL QILISH

**Asadova Zarina Sheraliyevna**

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti*

*Filologiya va tillarni o'qitish fakultiti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'rta asrlar davrida tilshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Asarda arab, O'rta Osiyo, rus va Yevropa tilshunoslik maktablarining shakllanish jarayonlari, ularning asosiy ilmiy yo'nalishlari va o'zaro ta'siri yoritilgan. Arab tilshunosligining Qur'on tili asosida rivojlanishi, O'rta Osiyo olimlarining (Al-Farobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy va boshqalar) ilmiy merosi, shuningdek rus va Yevropa grammatik an'analarning shakllanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada ushbu maktablarning o'zaro aloqasi va zamonaviy tilshunoslik rivojiga qo'shgan hissasi ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida o'rta asrlar tilshunosligi insoniyat ilmiy tafakkuri taraqqiyotida muhim o'rin tutgani aniqlanadi.*

### **Kirish**

Tilshunoslik — insoniyat tafakkurining eng qadimiy va muhim sohalaridan biridir. U tilning tuzilishi, ishlatilishi hamda inson jamiyatidagi o'rni va ahamiyatini o'rganadi. O'rta asrlar davri tilshunoslik tarixida alohida o'rin tutadi, chunki aynan shu davrda arab, O'rta Osiyo, rus va Yevropa ilmiy maktablari shakllanib, keyingi davr tilshunosligining poydevorini yaratdi. Arab olimlari tahliliy grammatikani, O'rta Osiyo mutafakkirlari esa tilning ijtimoiy va falsafiy mohiyatini chuqur o'rganganlar. Yevropa va rus olimlari esa bu davrda grammatik tizimni ilmiy asosda tahlil qilishni boshlaganlar. Shu tariqa, o'rta asrlar tilshunosligi turli madaniy hududlarda mustaqil ravishda rivojlanib, bir-birini boyitgan. Mazkur maqolada ushbu davr tilshunosligining asosiy yo'nalishlari, mashhur olimlar faoliyati hamda ularning ilm-fanga qo'shgan hissalarini tahlil qilinadi.

O'rta asr arab tilshunosligi dunyo ilm-fani tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu davrda arab tili nafaqat diniy ilm-fan tili, balki ilmiy tadqiqotlar, falsafa, matematika, tibbiyot va boshqa ko'plab fanlar uchun ham asosiy vosita bo'lgan. Arab xalifaligining kengayishi natijasida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqa kuchayib, til va adabiyot sohasida katta o'zgarishlar yuz bergan. Bu jarayon arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Arab tilshunosligining paydo bo'lishiga Qur'on tilini to'g'ri o'qish va talqin qilish ehtiyoji sabab bo'lgan. Qur'on oyatlaridagi ma'nolarni chuqur anglash uchun arab tili grammatikasi va lug'atini mukammal bilish zarurati tug'ilgan. Shu sababli, arab grammatikasi ilk bor Qur'on matnlarini to'g'ri o'qish va tushunishga qaratilgan holda rivojlangan. Dastlabki grammatik qoidalarni tuzishda arab shevalari o'rtasidagi tafovutlarni o'rganish ham muhim bo'lgan. Chunki turli hududlarda yashovchi arab qabilalari bir-biridan farqli talaffuz va uslublarga ega bo'lgan. Basra va Kufa lisoniy maktablari arab





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tilshunosligining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Basra maktabi mantiqiy tahlil va qattiq grammatik qoidalar bilan ajralib turgan bo'lsa, Kufa maktabi esa shevalar xilmaxilligini inobatga olgan holda yanada erkin yondashuvni qo'llagan. Ushbu ikki maktabning ilmiy bahslari arab tilining nazariy asoslarini chuqur o'rganishga zamin yaratgan. Natijada arab grammatikasi mukammal ilmiy tizimga aylangan. O'rta asr arab tilshunosligining rivojlanishida Xalil al-Farohidiy va uning shogirdi Sibavayhiy muhim rol o'ynagan. Xalil al-Farohidiy arab fonetikasining asoschisi bo'lib, birinchi lug'at yaratgan va vazn tizimini ishlab chiqqan. Sibavayhiy esa "Kitob" asari orqali arab grammatikasini nazariy jihatdan asoslab berdi. U grammatik qoidalarni mantiqiy va izchil tartibda bayon etib, arab tilshunosligining ilmiy yo'nalishini belgilab bergan. Ibn Jinniy esa fonetika va morfologiya sohasida katta ilmiy meros qoldirgan. O'rta asr arab tilshunosligi faqat Qur'onni to'g'ri o'qish va talqin qilish bilan cheklanib qolmay, adabiyot va she'riyatning o'ziga xosligini saqlash, ilmiy asarlarni to'g'ri tushunish hamda turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida ham rivojlangan. Shu bois, arab tili grammatikasi chuqur ilmiy tahlilga asoslangan mukammal tizim sifatida shakllangan. Ushbu ilmiy meros keyinchalik Yevropa tilshunosligiga ham ta'sir ko'rsatgan va dunyo lingvistikasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ushbu tadqiqotda o'rta asr arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi ni o'rganishda turli tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Avvalo, tarixiy-taqqoslama usul qo'llanilib, arab tilshunosligi tarixidagi asosiy davrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Bu usul yordamida arab tilshunosligi Basra va Kufa maktablari doirasida qanday shakllangani, ularning ilmiy yondashuvlari o'zaro qanday farqlangani va bir-birini qanday to'ldirgani aniqlab berildi.

Manbashunoslik usuli tadqiqotning muhim qismini tashkil etadi. O'rta asr arab tilshunosligiga oid asl manbalar, xususan, Xalil al-Farohidiy, Sibavayhiy va Ibn Jinniy kabi mashhur tilshunoslarning asarlari chuqur o'rganildi. Ushbu asarlar tahlil qilinib, ulardagi grammatik qoidalar, fonetika va morfologiya nazariyalari, shuningdek, sintaksis masalalari batafsil ko'rib chiqildi. Manbalarining ilmiy merosi o'rganilib, ularning arab tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi aniqlandi. Qiyosiy tahlil usuli orqali Basra va Kufa lisoniy maktablarining ilmiy yondashuvlari taqqoslandi. Basra maktabining mantiqiy tahlil va qat'iy grammatik qoidalari bilan ajralib turishi, Kufa maktabining esa shevalar xilmaxilligini inobatga olgan holda moslashuvchan yondashuvi tahlil qilindi. Ushbu ikki maktab o'rtasidagi ilmiy bahslar va ular o'rtasidagi farqlar o'rganilib, ular arab tilshunosligi rivojiga qanday ta'sir ko'rsatgani yoritildi.

Shuningdek, lingvistik tahlil usuli qo'llanilib, arab tilshunosligidagi grammatik tizim va qoidalar chuqur o'rganildi. Arab tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va semantikasi alohida tahlil qilinib, ular orasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sir o'rganildi. Ushbu tahlil natijasida arab tilining nazariy asoslari va grammatik tizimi chuqur anglashga erishildi.

Ta'rifiy tahlil usuli yordamida o'rta asr arab tilshunosligining ilmiy terminlari va tushunchalari aniqlashtirildi. Arab grammatikasida ishlatiladigan maxsus atamalar, ularning ma'nosi va ilmiy ahamiyati batafsil tushuntirildi. Ushbu usul orqali tilshunoslikka oid





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tushunchalar nazariy jihatdan izohlandi va ular orasidagi bog'liqlik ko'rsatildi. Intertekstual tahlil usuli yordamida o'rta asr arab tilshunosligi va boshqa ilmiy an'analar, jumladan, yunon va hind tilshunosligi orasidagi bog'liqlik o'rganildi. Yunon tilshunoslari asarlarining arab tilshunosligiga ta'siri, arab tilshunosligidagi ba'zi nazariyalarni tushuntirishda hind lisoniy maktablari bilan o'xshashliklar tahlil qilindi. Shu tariqa, arab tilshunosligining shakllanishiga turli madaniyatlarining ta'siri oydinlashtirildi.

Bundan tashqari, tarixiy rekonstruktsiya usuli yordamida o'rta asr arab tilshunosligining rivojlanish jarayoni qayta tiklandi. Arab tilshunosligining ilk davrlari, uning bosqichma-bosqich rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir etgan omillar aniqlandi. Ushbu usul yordamida arab tilshunosligi tarixidagi eng muhim davrlar va ulardagi ilmiy o'zgarishlar ketma-ketligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari o'rta asr arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini chuqur anglashga imkon berdi. Avvalo, arab tilshunosligining paydo bo'lishi Qur'on tilini to'g'ri o'qish va talqin qilish zarurati bilan chambarchas bog'liq ekanini aniqlandi. Qur'on nozil bo'lgan davrda arab shevalari o'rtasidagi tafovutlar matn mazmunini noto'g'ri anglash xavfini ko'rsatib berdi. O'rta asr arab tilshunosligi dunyo ilm-fani tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu davrda arab tili nafaqat diniy ilm-fan tili, balki ilmiy tadqiqotlar, falsafa, matematika, tibbiyot va boshqa ko'plab fanlar uchun ham asosiy vosita bo'lgan. Arab xalifaligining kengayishi natijasida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqa kuchayib, til va adabiyot sohasida katta o'zgarishlar yuz bergan. Bu jarayon arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Arab tilshunosligining paydo bo'lishiga Qur'on tilini to'g'ri o'qish va talqin qilish ehtiyoji sabab bo'lgan. Qur'on oyatlaridagi ma'nolarni chuqur anglash uchun arab tili grammatikasi va lug'atini mukammal bilish zarurati tug'ilgan. Shu sababli, arab grammatikasi ilk bor Qur'on matnlarini to'g'ri o'qish va tushunishga qaratilgan holda rivojlangan. Dastlabki grammatik qoidalarni tuzishda arab shevalari o'rtasidagi tafovutlarni o'rganish ham muhim bo'lgan. Chunki turli hududlarda yashovchi arab qabilalari bir-biridan farqli talaffuz va uslublarga ega bo'lgan. Basra va Kufa lisoniy maktablari arab tilshunosligining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Basra maktabi mantiqiy tahlil va qattiq grammatik qoidalar bilan ajralib turgan bo'lsa, Kufa maktabi esa shevalar xilma-xilligini inobatga olgan holda yanada erkin yondashuvni qo'llagan. Ushbu ikki maktabning ilmiy bahslari arab tilining nazariy asoslarini chuqur o'rganishga zamin yaratgan. Natijada arab grammatikasi mukammal ilmiy tizimga aylangan.

O'rta asr arab tilshunosligining rivojlanishida Xalil al-Farohidiy va uning shogirdi Sibavayhiy muhim rol o'ynagan. Xalil al-Farohidiy arab fonetikasining asoschisi bo'lib, birinchi lug'at yaratgan va vazn tizimini ishlab chiqqan. Sibavayhiy esa "Kitob" asari orqali arab grammatikasini nazariy jihatdan asoslab berdi. U grammatik qoidalarni mantiqiy va izchil tartibda bayon etib, arab tilshunosligining ilmiy yo'nalishini belgilab bergan. Ibn Jinniy esa fonetika va morfologiya sohasida katta ilmiy meros qoldirgan.

O'rta asr arab tilshunosligi faqat Qur'onni to'g'ri o'qish va talqin qilish bilan cheklanib qolmay, adabiyot va she'riyatning o'ziga xosligini saqlash, ilmiy asarlarni to'g'ri tushunish





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



hamda turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida ham rivojlangan. Shu bois, arab tili grammatikasi chuqur ilmiy tahlilga asoslangan mukammal tizim sifatida shakllangan. Ushbu ilmiy meros keyinchalik Yevropa tilshunosligiga ham ta'sir ko'rsatgan va dunyo lingvistikasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ushbu tadqiqotda o'rta asr arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishini o'rganishda turli tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Avvalo, tarixiy-taqqoslama usul qo'llanilib, arab tilshunosligi tarixidagi asosiy davrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Bu usul yordamida arab tilshunosligi Basra va Kufa maktablari doirasida qanday shakllangani, ularning ilmiy yondashuvlari o'zaro qanday farqlangani va bir-birini qanday to'ldirgani aniqlab berildi. Manbashunoslik usuli tadqiqotning muhim qismini tashkil etadi. O'rta asr arab tilshunosligiga oid asl manbalar, xususan, Xalil al-Farohidiy, Sibavayhiy va Ibn Jinniy kabi mashhur tilshunoslarning asarlari chuqur o'rganildi. Ushbu asarlar tahlil qilinib, ulardagi grammatik qoidalar, fonetika va morfologiya nazariyalari, shuningdek, sintaksis masalalari batafsil ko'rib chiqildi.

Yangi asrlarda Yevropa tilshunosligi. Uyg'onish davri tilshunosligi XV-XVIII asrlarni qamrab oladi. Uyg'onish davrining boshlanishi bilan cherkovning obro' - e'tibori susayib, antik davrga bo'lgan e'tibor tobora kuchayadi. Uyg'onish davrining vakillari, ziyolilari yunon va rimliklarning boy milliy madaniyatiga murojaat qila boshlashdi. Yangi asrlarda kapitalizmning feodalizm ustidan g'alabasiga erishildi. Shu bois, milliylik, o'zlikni anglash, san'at, adabiyot va fanga bo'lgan munosabatlar jiddiy tus ola boshladi. Bu davrga kelib, dunyo tillari haqidagi ma'lumotlar ancha ko'paydi. Tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti uchun muhim va zarur bo'lgan materiallarni, faktlarni to'plash, yig'ish amalga oshirildi. Filologiya fan sifatida shakllandi. Sun'iy xalqaro tillarning loyihalari vujudga keldi. Uch yuz yil davomida sun'iy xalqaro tillarning olti yuzga yaqin loyihalari yaratildi. Milliy tillarning o'ziga xos grammatik strukturalari chuqur o'rganilishi natijasida mantiqiy universal grammatikalar ham yuzaga kela boshlaydi. Jumladan, Akal tomonidan arab tili grammatikasi, Reyxlin tomonidan qadimgi yahudiy tili grammatikasi yaratildi.

Reyxlinning mazkur asarida birinchi bo'lib, Yevropa tilshunosligida o'zak, qo'shimcha singari tushunchalar qo'llanilgan. Bu davrga kelib qadimgi yunon faylasuflarining fikrlari ta'sirida gapning bo'laklari ham formal logik qoidalar asosida obyekt va predikat singarilar orqali keng izohlana boshladi. Shu davrda boshqaruv va moslashuv munosabatlari bir-biridan farqlandi. Yevropa tilshunosligida tillarni bir-biri bilan qiyoslash, taqqoslash yo'llari bilan ularning tarixiy qarindoshliklarini aniqlashga ham harakat qilina boshlandi. Ana shunday izlanishlar natijasi sifatida yuzaga kelgan ishlar sifatida G.Postellungning "Tillarning qarindoshligi haqida" nomli, Iosif Yustus Skaligerning "Yevropa tillari haqida mulohazalar" nomli, Pyotr Pallasning "Barcha tillar va shevalarning qiyosiy lug'ati", Adelung va Faterning "Mitridat yoki umumiy tilshunoslik" asarlarini ko'rsatish mumkin. Yevropa tilshunosligida Dekart, Leybnits kabi olimlarning falsafiy qarashlari ta'sirida tilning grammatik qurilishini mantiqiy qoidalar va mezonlar asosida talqin qilish ham o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Bunday tadqiqotlarning natijasi sifatida XVII-XVIII



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



asrlarda mantiqiy grammatikalarning bir necha o'xshash ko'rinishlari vujudga keldi. 1660-yilda Parij atrofidagi Por-Royal monastirining rohib olimlari mantiqshunos Anton Arno va tilshunos Klod Lanslolar ilk bor "Umumiy ratsional grammatika" asarini fransuz tilida yaratdilar. Bu asar Parijda nashr qilindi.

Bu grammatikada fonetikaga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan edi. Fonetikaga xos bo'lgan tovush va harf, urg'u, bo'g'inga ajratish singarilar bilan bog'liq masalalar ham yoritilgan. Morfologiyaga oid ma'lumotlar esa ot, sifat, olmosh, fe'l, sifatdosh, ravish, bog'lovchi, undovlar haqida va ularga xos bo'lgan grammatik kategoriyalar xususidadir. Mazkur asarning tugallanish qismida sintaksisga doir masalalarga ham alohida munosabat bildirilgan. Jumladan, so'z birikmasi va gap haqidagi ma'lumotlar keng yoritilgan. Bu asarning ilmiy jihatdan yanglish tamoyillarga asoslanganligi ko'pgina tilshunoslar tomonidan ta'kidlanadi. Bunga sabab mazkur grammatikada bir mazmunning turli tillarda turlicha vositalar bilan ifodalanishi hisobga olinmaganligi, tillarning turlicha grammatik vositalar va grammatik tuzilishining o'ziga xosligi, muayyan bir tilning o'zida ham tarixiy davrlarda yuzaga keluvchi grammatik o'zgarishlarning kuzatilishi mumkinligi singari muhim masalalarning hisobga olinmaganligidir. Falsafiy grammatika esa tilni o'zgarmas, bir xilda turuvchi hodisa sifatida qaraydi. Biroq tilning tarixan o'zgaruvchan ekanligi isbot talab etmaydi. Tilshunoslikning vazifasi tilda mavjud holatni ilmiy jihatdan yoritib berishdan iborat deb tushunadigan bo'lsak, u holda falsafiy grammatikaning mazmuni va mohiyati tamoman bunga ziddir. Shu bois XIX asrning mashhur tilshunosi Rasmus Rask bu qarashlarni mutlaqo asossiz ekanligini, uning prinsiplarida noto'g'ri munosabatlarning mavjudligini ko'rsatib beradi va bu haqda shunday deydi: "Grammatikaning vazifasi so'z yasash haqida ko'rsatma berish emas, balki so'zlarning qanday yasalishini va o'zgarishini tasvirlashdir" (N.A.Kondrashov, 42-bet). Xullas, mantiqiy (yoki falsafiy, ratsional) grammatika ayni bir mazmunning turli tillarda turli vositalar bilan ifodalanishini, grammatik ifoda vositalari va grammatik mezonlarning, kategoriyalarning turlicha, har bir tilning o'ziga xos bo'lishi mumkinligini nazardan chetda qoldirdi. Bunday grammatikalarda tilga o'zgarmas hodisa sifatida munosabat bildirilganligi, lingvistik qonuniyatlarga mos kelmasligi, mazkur yondashuvning mantiqiy mezonlarga mos kelishi, mantiq va lingvistika bir-biriga bog'liq bo'lsa ham, ular yagona fan emasligi, ularning qonuniyatlari farqli ekanligini hisobga olmaganligi yaqqol sezilib turadi. Qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, bu grammatika o'z davri va undan keyingi davrlar tilshunosligi uchun ham ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Uning ta'sirida ko'plab yangi asarlar yaratildi.

Slavyan mamlakatlarida tilshunoslik fanining taraqqiyotiga M.V.Lomonosov ham katta hissa qo'shgan. M.V.Lomonosov filologik fanlar bilan ham shug'ullangan. U grammatikaga, notiqlikka, stilistikaga oid bir qancha asarlari bilan mashhurdir. U rus tilining grammatikasiga daxldor juda ko'plab izlanishlar olib borgan va birinchilardan bo'lib, rus tilining grammatik strukturasi keng yoritgan "Rossiyskaya grammatika" asarini yozgan. Olim grammatika ilmiga alohida e'tibor qaratgan va grammatika haqida: "Grammatika bo'lmasa, notiqlik ilmi tumtoq, falsafa asossiz, tarix yoqimsiz, huquqshunoslik



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



shubhali”, – deb yozgan edi. M.V.Lomonosov tillarning qarindoshligi masalasi bilan ham alohida shug‘ullangan. Uning “Rus tili grammatikasi bo‘yicha materiallar” nomli asarida rus, latish, yunon, lotin va nemis tillarining tarixan qarindosh ekanligi ko‘rsatib beriladi. Yangi asrlarda Yevropada tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatdan ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritganligini alohida qayd etish lozim. Ana shu yutuqlar tilshunoslikning yangi bosqichgako‘tarilishiga zamin yaratdi. Shu asosda yangi bosqich – qiyosiytarixiy tilshunoslik shakllandi.

